

**GEOGRAPHICAL SIGNIFICANCE OF ECONOMIC ZONES IN JIZZAKH REGION****Laziza Umarova**

student

Jizzakh State Pedagogical University named after A. Qadiri

Jizzakh, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: special industrial zone, transport, road construction, climate, geographical location, agricultural products, processing.

Abstract: In this article, the geographic location and economic problems in the establishment of a special economic zone in Jizzakh region are detailed.

Received: 04.04.23**Accepted:** 06.04.23**Published:** 08.04.23**JIZZAX VILOYATIDA IQTISODIY ZONALARINING GEOGRAFIK AHAMIYATI****Laziza Umarova**

talaba

A.Qodiriy nomidagi Jizzax davlat pedagogika universiteti

Jizzax, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: maxsus industrial zona, transport, yo'l qurilish, iqlim, geografik joylashuv, qishloq xo'jalik mahsulotlari, qayta ishlash.

Annotatsiya: mazkur maqolada Jizzax viloyati hudidida maxsus iqtisodiy zonani tashkil etishda geografik joylashuv hamda iqtisodiy muammolar atroflicha yoritilgan.

ГЕОГРАФИЧЕСКОЕ ЗНАЧЕНИЕ ЭКОНОМИЧЕСКИХ ЗОН ДЖИЗАКСКОЙ ОБЛАСТИ**Лазиза Умарова**

студент

Джизакский Государственный Педагогический Университет имени А. Кадири

Джизак, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: особая индустриальная зона, транспорт, дорожное строительство, климат, географическое положение, сельскохозяйственная продукция, переработка.

Аннотация: В данной статье подробно рассмотрены географическое положение и экономические проблемы при создании особой экономической зоны в Джизакской области.

KIRISH

Jizzax viloyati geografik joylashuvi bo'yicha O'zbekiston Respublikasining markaziy qismida, Sirdaryo va Zarafshon daryolari oralig'ida joylashgan. Viloyat umumiy yer maydoni 20500 km². Tabiati keskin kontinental, yoz oylari issiq va qishi sovuq. Shimolda Qozog'iston Respublikasi va Sirdaryo viloyatlari bilan, janubi-sharqda Tojikiston Respublikasi bilan g'arbda Navoiy va Samarqand viloyatlari bilan chegaradosh. Umumiy aholisi – 1386600 (2020-yil) kishi, O'zbekiston Respublikasi aholisining 4,7% ini tashkil etadi, 70 dan ortiq millat va ellatlar istiqomat qiladi. Jami aholining 83,2% ini o'zbeklar tashkil etadi. Viloyatda aholi zichligi 1km²ga 58 kishi to'g'ri keladi. Viloyat aholisining 63,8% qishloqlarda yashaydi.

ASOSIY QISM

Viloyat iqtisodining asosiy qismini qishloq xo'jaligi va sanoat tashkil etadi. Asosiy ekinlari: paxta, bug'doy va poliz ekinlari. Chorvachilik ham rivoj topgan. Viloyatda polimetall rudasi, temir, oltin, volfram, rux, qo'rg'oshin, ohaktosh konlari mavjud.

Toshkent, Samarqand, Buxoro va Respublikaning barcha shaharlariga chiqish avtomobil yo'li bilan bog'langan. Temir yo'l va quvur transporti rivojlangan. Ammo havo yo'llari hozircha mavjud emas.

O'zbekiston Respublikasi mustaqillik yillarida iqtisodni rivojlantirish va xalq farovonligini oshirish maqsadida qator ishlar amalga oshirilmoqdaki, bu kelgusida mamlakat rivojiga yanada katta yo'l ochadi. Shunday yo'llardan biri mamlakat bo'ylab erkin iqtisodiy zonalarini tashkil etish va rivojlantirish bilan bog'liq.

2019-yilning 9-dekabrda O'zbekiston Respublikasida maxsus iqtisodiy hududlarni tashkil etish to'g'risidagi Qonun shular jumlasidandir. Qayd etilgan Qonun doirasida Jizzax viloyati hududida erkin industrial hududni tashkil etish ko'zda tutilgan.

Erkin industrial iqtisodiy hududning o'zi nima?

Maxsus iqtisodiy zona – maxsus ajratilgan hududni jadal ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish uchun chet el investitsiyalari va mahalliy investitsiyalarni, yuqori texnologiyalar hamda boshqaruv tajribasini jalb etish maqsadida maxsus ajratilgan, belgilangan chegaralarga va maxsus huquqiy rejimga ega bo'lgan hududdir.

Erkin iqtisodiy hudud esa yangi ishlab chiqarishni barpo etish, yuqori texnologik ishlab chiqarishni rivojlantirish, raqobatbardosh, import o'rnini bosuvchi, eksportga yo'naltirilgan tayyor sanoat mahsulotini ishlab chiqarish, muhandislik-kommunikatsiya, yo'l transport, ijtimoiy infratuzilmani va logistika xizmatlarini rivojlantirishni ta'minlash maqsadlarida tashkil etilgan hudud. Shuningdek, maxsus sanoat zonasi-boshqaruv, xo'jalik va moliyaviy faoliyatning alohida rejimi joriy etiladigan hudud.

Maxsus sanoat zonalarini zarur ma'muriy, ilmiy-texnologik, ishlab chiqarish, muhandislik kommunikatsiya, yo'l-transport va ijtimoiy infratuzilmani barpo etish uchun yer maydonlarini ajratish orqali shakllantiriladigan xizmat ko'rsatish va ishlab chiqarish zonalarini o'z ichiga oladi.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda Jizzax viloyati hududida "Jizzax maxsus industrial zona"ni tashkil etishda quyidagi asosiy vazifalarni amalga oshirish maqsadga muvofiq:

- ichki va jahon bozorlarida raqobatbardoshli bo'lgan, yuqori qo'shilgan qiymatga ega mahsulot ishlab chiqarish bo'yicha zamonaviy, yuqori texnologiyali innovatsion ishlab chiqarishlarni barpo etish va ularning samarali faoliyat yuritishi uchun investitsiyalar, eng avvalo, to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalarni jalb etish;

- maxsus industrial zonaga kiruvchi mintaqaning ishlab chiqarish va resurs salohiyatidan kompleks va samarali foydalanishni ta'minlash, mineral-xom ashyo resurslarini va qishloq xo'jaligi xom ashyosini yanada chuqur qayta ishlash bo'yicha yangi ishlab chiqarishlarni barpo etish;

- maxsus industrial zona va umuman respublika tashkilotlari o'rtasida mustahkam kooperatsiya aloqalari o'rnatish hamda sanoat kooperatsiyasini rivojlantirish asosida mahalliy xom-ashyo va materiallar negizida yuqori texnologiyali mahsulot ishlab chiqarishni mahalliyashtirish jarayonlarini chuqurlashtirish;

- "Jizzax maxsus industrial zona" hududida transport, muhandislik-kommunikatsiya va ijtimoiy infratuzilmanijadal rivojlantirishni hamda ulardan samarali foydalanishni ta'minlash.

Ushbu vazifalarni belgilanishini o'ziyiq viloyat hududida ulkan iqtisodiy moliyaviy ishlarni amalga oshirish mo'ljallanganidan darak beradi. Shu bilan birga o'rganilayotgan mavzudan chetlanmagan holda bu vazifalarni amalga oshirishda viloyat geografik joylashuvida qanday qulayliklar borligini ko'rib o'tish o'rinlidir.

Jizzax viloyati O'zbekiston Respublikasi markaziy qismida joylashib, avvalo yo'l-transport vositalari kesishgan hududda ekanligi, shu bilan birga hudud Tojikiston va Qozog'iston Respubliklari bilan chegaradoshligi ishlab chiqarilgan tovarlarni eksport qilishda qulaylik tug'diradi.

Jizzax viloyati sanoati haqida gapiradigan bo'lsak, Jizzaxda ishga tushirilgan birinchi sanoat korxonasi Jizzax ohak zavodi bo'lib u 1930- yilda mahsulot bera boshlagan.

Jizzax cho'li va Mirzacho'lni o'zlashtirish va cho'l aholisini uy-joy bilan ta'minlashda katta hissa qo'shgan Jizzax qurilish materiallari kombinati (ruscha KSM) 1960-yilda ishga tushirilgan.

Jizzax viloyati tashkil etilganidan keyin (1974-yil) o'nlab sanoat korxonalari ishga tushirilib, Jizzax Respublikamizning sanoatlashgan shaharlaridan biriga aylantirildi. Mustaqillik yillarida sanoatni rivojlantirish uchun ko'proq e'tibor berilmoqda. 2013-yil holatiga ko'ra Jizzax shahrida 100 dan ziyod sanoat korxonalari mavjud bo'lib, 21 mlrd so'mdan ortiq turli xil sanoat mahsulotlari

ishlab chiqarilgan. Ular orasida polietilen, trubalar va plyonkalar, kislotali akkumlyatorlar, ohak, paxta tolasi, ip-kalava, trikotaj mahsulotlari, paypoqlar, mebel, gilam, ipak tolasi, yog‘-moy, sut mahsulotlari va boshqa mahsulotlar ishlab chiqaradigan korxonalar alohida ajralib turadi.

Hozirgi kunda Jizzax viloyati va Jizzax shahri hududida chet el sarmoyalari ishtirokida barpo etilgan qo‘shma korxonalar 25 tadan oshdi. Shularning 19 tasida turli xil sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilmoqda. Xususan, O‘zbekiston-Amerika” O‘zeksayd” qo‘shma korxonasi diqqatga sazovordir. Nizom jamg‘armasi 147 ming AQSH dollarini tashkil etadigan bu qo‘shma korxona yiliga 1mln. dona kislotali akkumlyatorlar ishlab chiqarib, 50% ini chet mamlakatlarga eksport qilmoqda. Respublikamizda bu mahsulotlarni asosiy xaridorlari “UzDAEWOOavto” va “SamKochavto” qo‘shma korxonalari hisoblanadi.

O‘zbekiston-Turkiya hamkorligida qurilgan “Jizzaxtel” gilam ishlab chiqarish qo‘shma korxonasi o‘z mahsulotlarini Turkiya, Arab mamlakatlari va qo‘shni respublikalariga eksport qilmoqda hamda O‘zbekiston bozoriga chiqarmoqda.

Jizzax sanoat zonasida O‘zbekisto-Xitoy avtomobillari qo‘shma korxonasi ham 2021-yildan o‘z avtomobillarini savdoga chiqarmoqda .

Kelajakda ip-yigiruv fabrikasi, trikotaj va paypoq tikuv korxonalari negizida ham turli xil yengil sanoat mahsulotlarini ishlab chiqaradigan qo‘shma korxonalari barpo etish maqsadga muvofiq deb hisoblayman.

Bundan tashqari viloyat iqtisodida qishloq xo‘jaligini ustuvorligiga fikr qaratilsa, raqobatbardosh qishloq xo‘jalik mahsulotlarini qayta ishlash yangi korxonalarini tashkil etish samara beradi degan fikrdamiz.

Aytaylik, viloyatning Forish, Baxmal, G‘allaorol tumanlari hududida bog‘dorchilik mahsulotlarini yetkazish uchun ob-havo, geografik qulayliklar mavjud. Bu hol bog‘dorchilik mahsulotlarini ya`ni quruq meva, sabzavotlarni yanada ko‘proq yetishtirish imkonini beradi.

Jahon iqtisodiyotiga nazar tashlansa bu kabi mevalar uchun Yaponiya va Sharqiy Osiyo mamlakatlari bozorlarida talab katta. Industrial iqtisodiy zonalarini tashkil etishda shu hududning geografik joylashuvi va azaldan mavjud iqtisodiy holatidan kelib chiqish katta foyda keltiradi.

XULOSA

Bundan tashqari mahsulot yetishtirishda avvalo ichki va tashqi bozorni o‘rganish va shu asosda mahsulot tayyorlash eng ma`qul yo‘l hisoblanadi. Viloyat hududida tog‘ va tog‘ oldi Zomin, Baxmal, Forish tumanlari hududlarida turli dorivor o‘simliklarni o‘sishi va ulardan farmatsevtikada foydalanish mumkunligi hisobga olinsa, iqtisodiy industrial hududda farmatsevtika sanoatlarini shakllantirish va rivojlantirish maqsadga muvofiqdir.

Mazkur sohalarni rivojlantirish uchun esa albatta xorij va ichki investitsiyalarni jalb qilish zarur bo‘ladi. Buning uchun esa o‘z navbatida qayd qilingan soha to‘g‘risida va viloyatning qulay

imkoniyatlarga ega ekanligi yuzasidan xorijiy ommaviy axborot vositalari va turli iqtisodiy jurnallarda ushbu mavzuni keng yoritadigan ilmiy asoslangan maqolalar bilan qatnashish maqsadga muvofiqdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Maxsus industrial zonalar to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Qonuni 2019 yil 9-dekabr.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 18.03.2013-yil Farmoni.
3. O'zbekistonda maxsus iqtisodiy zonalarini tashkil etish yuzasidan tahliliy doklad. T.:2008 yil.
4. Hakimov.Q.M.Adilova O Jizza viloyati geografiyasi.T-2015
5. Umurzakov. B.X. va Vaxidova.M.X. «Узбекистан важнейшие шаги на пути интеграции» Т.: 2016 г
6. O'zbekiston Respublikasining 2017-2021 yillarda rivojlantirishning dolzarb yo'nalishlari to'g'risidagi harakatlar strategiyasi. O'zbekiston Respublikasi Qarori №PK-4947 07.02.2017 y.